

PASHTU TILIDA SON SO'Z TURKUMI VA UNING MA'NO TURLARI

Zafar Normatov, Isfandiyor Abdurahmonov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Bu mazvu o'zbek afg'onshunoslari uchun biroz yangi mavzulardan biri hisoblanadi. Pashtu tilida son so'z turkumi haqida ko'plab maqola va ilmiy ishlar yozilgan. Ammo tartib sonlar va ularning grammatik vazifalari haqida alohida o'rganilmagan. Bundan tashqari pashtu tilida son so'z turkumining o'zi hali to'liq shakllanib ulgurmagan. Pashtu olimlarining o'zlari hali sonni alohida so'z tukumini sifatida olishga yakdil fikrga kelishmagan. Shunday ekan mazkur maqolada pashtu tilida sonning o'ziga xos xususiyatlari haqida umumiy tushuncha berish hamda sonlarning yasalishi va uning asosiy turlari tavsiflanadi.

Tayanch so'z va iboralar: pashtu tilida son so'z turkumi, sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari, sonlarning ma'nosiga ko'ra turlari.

Abstract. This topic is one of the new topics for Afghan scholars in Uzbekistan. Many articles and research papers have been written about the Pashto numerals. But the order of numbers and their grammatical functions has not been studied separately. In addition, in Pashto, the numbers itself has not yet been fully formed. Pashto scholars themselves have not yet agreed on number as a separate word family. Therefore, this article provides a general understanding of the specific features of numbers in Pashto, and describes the formation of numbers and its main types.

Keywords and expressions: numbers in Pashto language, types according to the structure of numbers, types according to the meaning of numbers.

Аннотация. Данная тема является одной из новых тем для афганских учёных в Узбекистане. О цифрах пушту написано множество статей и исследовательских работ. Но порядок чисел и их грамматические функции отдельно не изучались. Кроме того, в пушту еще не до конца сформировалась сама численность. Сами ученые-пушту еще не пришли к единому мнению относительно числа как отдельного семейства слов. Поэтому данная статья дает общее представление об особенностях чисел в пушту, описывает образование чисел и их основные виды.

Ключевые слова и выражения: числа в языке пушту, типы по структуре чисел, типы по значению чисел.

Son mustaqil so'z turkumi bo'lib, predmetlarning miqdorini va tartibini ifodalash uchun xizmat qiladi. Siddiqillo Rishtin sonlarni tuzilishiga ko'ra ikkiga ifodalash uchun xizmat qiladi. ¹ساده عددونه - sodda sonlar va مركب عددونه - qo'shma sonlarga bo'ladi.

Pashtu tilida bir o'zakdan iborat sonlar يو [yaw] - bir, خلور [tsalor] - to'rt, لس [las] - o'n, پنخوس [pindzos] - ellik, سل [səl] - yuz, زر [zər] - ming, کروړ [kroṛ] o'n

¹ صدیق الله ریشتن. پښتو گرامر پېښور. ۱۹۹۴م. مخ. ۱۸۳

million kabilar sodda sonlar deyiladi, ikki va undan ortiq o'zakdan tuzilgan sonlar esa پنخلس [pinjəlas] - o'n besh, اته ويشت [atəwist] - yigirma sakkiz, يو سلو شپپته [yaw səlo spetə] - bir yuz oltmish kabi, qo'shma sonlar deb ataladi.

R.Inomxojayev sonlarni ma'no yuzasidan sanoq sonlar, tartib sonlar, chama sonlar, kasr sonlar hamda taxmin va foizni belgilovchi sonlarga bo'ladi.² Hoshimi esa sonlarni ma'no yuzasidan beshga ajratadi:

1. اصلي يا آر شمير عدد.
2. (tartib son) پور شمير (وصفي يا رتبي عدد).
3. (kasr son) وور شمير (كسري عدد).
4. (dona son) ويش شمير (انقسامي عدد).
5. (taxmin) sonlarga ajratgan. اتكل شمير (تخميني عدد).³

Sanoq sonlar (اصلي عددونه)⁴

Sanoq sonlar o'z tarkibiga ko'ra birliklar, o'nliklar, yuzliklar, mingliklar va yirik sonlarni qamrab oladi. Noldan to'qqizgacha bo'lgan sonlar birliklar bo'lib, ularning imlosi, talaffuzi va raqam belgisi quyidagichadir:

Son	Imlosi	Talaffuzi	Raqam belgisi
0	صفر	[səfer]	۰
1	يو	[yaw]	۱
2	دوه	[dwa]	۲
3	دري	[dre]	۳
4	خلور	[tsalór]	۴
5	پنخه	[pindzə]	۵
6	شپين	[shpajj/shpag]	۶
7	اووه / اووه	[owə]	۷
8	اته	[atə]	۸
9	نهه / نه	[nəh / nəha]	۹

O'ndan to'qson to'qqizgacha bo'lgan sonlar o'nliklar hamda ularning birliklar bilan birikkan qo'shilmalarini o'z ichiga oladi, ular qo'shma sonlar deb ataladi. Qo'shma sonlar yasalishida birliklar o'nliklarning old tomoniga birikadi. Bu sonlarning tuzilishidagi tartib o'zbek tilidagidan farq qiladi - o'zbek tilida oldin o'nliklar, keyin birliklar qo'yiladi (o'n bir, yigirma besh kabi), pashtu tilida esa buning aksicha, oldin birliklar, keyin o'nliklar qo'yiladi.

Bunda o'ndan yigirma to'qqizgacha bo'lgan sonlar tuzilishida va talaffuzida birmuncha fonetik o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu sonlarning raqam belgilari, o'zbek tilidagiga o'xshab, chapdan o'ng qarab yoziladi va o'qiladi.

²R. Inomxojayev. Pashto grammatikasi (fonetika va morfologiya). - Toshkent, 2020. - B. 119

³ محقق سيد محى الدين هاشمي. د پښتو ژبي لنډ گزامر (صزف-نحوه). كابل. ۲۰۰۴م. مخ. ۴۳-۴۴

⁴ Sanoq sonlarni Rishtinning «پښتو گرامر» kitobida مطلق nomi bilan ham ishlatilgan. Hoshimi esa o'zining «د پښتو د پښتو» kitobida sanoq sonlarni آر شمير nomi bilan ham keltiradi.

نهه [nəh] to'qqiz soni لس [las] o'n soni bilan kelganida و [h] harfi و [o] ga almashadi. Ba'zan لس [las] o'n sonidagi ل [l] harfi ن [n] ga almashitirib yoziladi.⁶

Yigirma birdan yigirma to'qqizgacha bo'lgan qo'shma sonlarni tuzishda birliklar شل [səl] ga emas, balki ويشت [wišt] so'ziga qo'shiladi. O'ttiz va undan yuqori o'nliklar hamda ularning birliklar bilan tuzgan qo'shilmalari namunalari quyidagi jadvalda taqdim etiladi.

Son	Imlosi	Talaffuzi	Raqam belgisi
30	دېرش	[dersh]	۳۰
31	يو دېرش	[yawdersh]	۳۱
40	خلو پښتد	[tsalwésht]	۴۰
43	درې خلو پښتد	[dretsawésht]	۴۳
50	پنخوس	[pindzós]	۵۰
55	پنخه پنخوس	pindzəpindzós]	۵۵
60	شپيته	[shpetə]	۶۰
64	خلور شپيته	[calóršpetə]	۶۴
70	اویا	[awyā]	۷۰
72	دوه اویا	[dwáawyā]	۷۲
80	اتیا	[atiyā]	۸۰
86	شپیر اتیا	[shpájatiyā]	۸۶
90	نوي	[nwi/ nāwi]	۹۰
97	اووه نوي	[owənwī]	۹۷
98	اته نوي	[atənwī]	۹۸
99	نه نوي	[nəhnwī]	۹۹

Qolgan 31-99 oraliq'idagi qo'shma sonlar jadvalda keltirilgan namunalar asosida yasaladi. Anne Boyle Devidning ta'kidlashicha, درې [dre] uch soni 31dan 69 sonlari orasida درې [dri] ga o'zgaradi. شپير [shpáj] olti soni esa 71 va 99 sonlari orasida [shpəj] shaklida talaffuz qilinishi keltirilgan.⁷

Yuz va undan ortiq qo'shma sonlar murakkab tarkibga ega bo'lib, ularning hadlari orasi bog'lovchilar bilan bog'lanadi. Masalan, yuz شل [səl] dan yuqori 199 gacha bo'lgan sonlar quyidagi namunalar asosida yasalashi kuzatiladi.

- 100 (۱۰۰) شل [səl] (يو سل) [yaw səl]
- 101 (۱۰۱) يو سلو يو [yaw səl-o yaw]
- 168 (۱۶۸) يو سلو اته شپيته [yaw səl-o atə shpetə]
- 187 (۱۸۷) يو سلو اووه اتیا [yaw səl-o owə atiyā]
- 199 (۱۹۹) يو سلو نه نوي [yaw səl-o nəh nwi]

Ikki yuz va undan yuqori qo'shma sonlarni yasaganda سل [səl]-yuz so'zi o'rniga سوه [sawa] so'zi qo'llaniladi.

- 200 (۲۰۰) [dwa sawa]
- 216 (۲۱۶) [dwa sawa-o-shpāras]

صديق الله ربنتين. پښتو گرامر پېښور. ۱۹۹۴. مخ. ۱۷۴-۱۷۵

⁷ Anne Boyle Devid. Descriptive grammar of Pashto and its dialect. - Garmany, 2014. - P.137

532 (۵۳۲) [pinjə sawa-o-dwadérsh]

856 (۸۵۶) [atá sawá-o-shpaj pindzós) va hokazo.

Katta sonlar nomlari, oraliqdagi qo'shma sonlarning tuzilishi va raqam bilan belgilanishi quyidagicha:

1000 (۱۰۰۰) زر [zər] (يو زر) [yaw zər]

1984 (۱۹۸۴) (yaw zər-o-nah sawa-o-calór atyā]

2018 (۲۰۱۸) [dwa zár-o-atəlas]

100 000(۱۰۰۰۰۰) [səl zára] yuz ming.

Yuz ming sonini ifodalash uchun pashtu tilida سل زره [səl zəra] bilan parallel ravishda hind tilidan o'zlashtirilgan لك [lak]so'zi ham qo'llaniladi. Ikki yuz mingdan boshlab u ko'plikda لکه [láka] shaklida ishlatiladi, ya'ni دوه لکه [dwa láka]-ikki yuz ming, پنځه لکه [pənja láka]-besh yuz ming va hokazo. لك [lak] bilan murakkab sonlar umumiy qoida bo'yicha tuziladi, masalan, 476385 (۴۷۶۳۸۵) [calor lak-o-shpaj, awiyā zəro-dre sawa-o-pindzə atiyā].

Million 1000000 (۱۰۰۰۰۰۰) میلیون [milyún]-million (يو مليون) [yaw milyún]. Ikki milliondan boshlab, umumiy qoidaga muvofiq, bu son oxiriga urg'usiz o [a] suffiksi qo'shiladi: دوه مليونه [dwa milyúna]-ikki million, شپږ مليونه [shpaj milyúna]-olti million va hokazo.

میلیون [milyún] so'zi bilan qo'shma sonlar umumiy qoida bo'yicha tuziladi, masalan, 6235847 (۶۲۳۵۸۴۷) [špaž milyúna dwa láka pindzədérsh zəra atə sawá owə tsalwesht]. Pashtu tilida yana bir hindcha o'zlashma son کروړ [kror]- o'n million faol ravishda qo'llaniladi, masalan, دوه کروړه افغانی [dwa króra afgānəy]-yigirma million afg'oni (pul) kabi.

Pashtu tilida ishlatiladigan eng katta sanoq sonlar (میلیارد) [milyārd]/[milliyārd] milliard hamda تریلیون [triluyun]-trillion bo'lib, ular ishtirokida yasaladigan qo'shma sonlar yuqorida sharhlangan qoidalar asosida yasaladi. Pashtu so'zlashuv tilida 1000-2000 oralig'idagi sonlarni ingliz tilidagi singari ming so'zi o'rniga yuz so'zini ishlatish orqali ifodalash tamoyili ham kuzatiladi. Masalan, 1800 soni [yaw zəro atə sawá] o'rniga [atəlas sawá] so'zmaso'z o'n sakkiz yuz, 1965 soni [yaw zəro nəh sawa-o-pindzə shpetə] o'rniga [nəhlas sawa-o-pindzə shpetə] shaklida talaffuz qilinadi. Bundan tashqari د پاسه [də pāsa], د بره [də bra], د باندي [də bānde] so'zlari orqali ham qo'shma sonlar yasaladi⁸. Masalan:

يو د پاسه شل [yaw də pāsa shəl]-yigirma bir. Demak, yigirma birdan yigirma to'qqizgacha bo'lgan son bu usulda yasalganda شل [shəl] o'zgarmay o'z holicha qoladi. Masalan: دوه د بره دېرش [dwa də bara dersht] - o'ttiz ikki, څلور د باندي دوه [dwa də bānde] - ikki yuzu to'rt. [calor də bānde dwa sawa]

کم [kam]⁹ so'zi orqali ham qo'shma sanoq sonlarni hosil qilish mumkin, bunda 1 dan 9 gacha sonlar کم [kam] so'zidan oldin keladi va shuncha son kamligini bildiradi. Masalan: يو کم پنځوس [yaw kam pindzos] - qirq to'qqiz, درې کم څلوېښت [dre kam tsalwesht] - o'ttiz yeti.

⁸ صدیق الله ربنتین. پښتو ګرامر. بیپنور. ۱۹۹۴. مخ. ۱۷۵.

⁹ Anne Boyle Devid. Descriptive grammar of Pashto and its dialect. Germany, 2014. - P.137

خلوبېنت [šəl]¹⁰ yigirma so'zi orqali ham qo'shma sonlarni yasash mumkin. [calwešt] qirq sanoq so'zi دوه شلې [dwa šəle] ikkita yigirma shaklida yasaladi.

شپړ نېمي شلې [špaž nemi šəli]- bir yuz o'ttiz, ya'ni oltida yigirma bir yuz qirq bo'ladi, ammo نېمي [nemi] yarimi so'zi kelgani uchun oxirgi yigirmaning yarmi o'n qo'shilgani uchun bir yuz o'ttiz bo'ladi. اته د پاسه خلور نېمي شلې [atə də pāsa calor nemi šəli] to'qson sakkiz

Sanoq sonlarning turlanishi

Bir soni bosh kelishik muzakkarda يو [yaw] - bir, muannasda يوه [yawa], vositali kelishik muzakkarda يوه [yawə], muannasda يوې [yawé] shakliga ega bo'ladi. Masalan, يو هلک [yaw halək] - bir o'g'il bola, يوه نجلې [yawá njələy] - bir qiz bola, د يوه هلک مور [də yawə halək mor] - bir o'g'il bolaing onasi, د يوې پېغلې [də yawé pēgle plār] - bir qizning otasi.

دوه [dwa] - ikki son ham jinsda o'zgarish xususiyatiga ega. Masalan, دوه کسان [dwa kasān] - ikki kishi, دوي شېخي [dwe shədzi]-ikkita ayol.

Ko'plik vositali kelishikda bu sonlar umumiy qoida bo'yicha [o] qo'shimchasini oladi va دوو [dwo] shakliga ega bo'ladi. Ikkidan yuqori sanoq sonlar ham shunday ko'plik vositali kelishikda [o] qo'shinchasini oladi va دريو [dréyo], خلورو [caloro], پنځه لسو [pinjəlas], خلورخلوبېنتو [tsalortsalwesht] va hokazo shakllarida bo'ladi.

Chama sonlar

Chama sonlar pashtu tilida لس [las] - o'n, شل [šəl] - yigirma, سل [səl] - yuz, زر [zər] - ming, لک [lak] - yuz ming, کړور [kror] - o'n million sonlariga گونه [-guna] yoki, -ونه [una] suffiksini qo'shish orqali yasaladi. Ular quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

Asos son	Chama son	O'zbekcha muqobili
لس [las] - o'n	لسگونە [lasguna]	O'nlab
شل [šəl] - yigirma	شلگونە [shəlguna]	Yigirmalab
سل [səl] - yuz	سلگونە [səlguna]	Yuzlab
زر [zər] - ming	زرگونە [zərguna]	Minglab
لک [lak] - yuz ming	لکونە [lakuna]	Yuz minglab
کړور [kror] - o'n million	کړورونە [krorúna]	O'n millionlab

Taqsim sonlar

Pashtu tilida taqsim sonlar sanoq sonlarni takrorlash yo'li orqali yasaladi¹¹.

يو يو [yaw-yaw] - bittadan

دوه دوه [dwa-dwa] - ikkitadan

خلور خلور [calor-calor] - to'rttadan

زر زر [zər-zər] - mingta-mingtadan

Jamlovchi sonlar

Pashtu tilida jamlovchi sonlar sanoq sonlarga واره [wāra] suffiksi qo'shilishi yo'li orqali yasaladi.¹²

¹⁰ Anne Boyle Devid. Descriptive grammar of Pashto and its dialect. Germany, 2014. -P. 137-138

¹¹ Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто). - Ленинград, 1987. - С. 108

دوارة [dwora] - ikkalasi, ikkovi
دري واره [drewora] - uchalasi
خلور واره [calorwora] - to'rtovi, to'rtalasi
پنجه واره [pinjəwora] - beshovi

Yasalgan jamlovchi sonlar jins kategoriyasida turlanadi va otlar bilan birga keladi.

Kasr sonlar

Pashtu tilida oddiy kasr sonlar va o'nli kasr sonlar qo'llaniladi. Oddiy kasr sonlar ikki xil yo'l bilan ifodalanadi.

1. Surat sanoq son, maxraj esa tartib shaklida o'qiladi. Masalan, $\frac{4}{5}$ خلور پنجم [tsalor pindzəm] - to'rt taqsim besh. Odatda bunday kasrlardan kesin برخه [barxa] yoki حصه [hissa] - qism so'zi qo'shiladi va kasr sonlardagi tartib son muannasda shaklda u bilan moslashadi. Agar kasr sonning surati birga teng bo'lsa, faqat maxraj tartib son shaklida o'qiladi. Masalan, $\frac{1}{5}$ پنجمه برخه [pindzəma barxa] - beshdan bir

2. Surat va maxraj sanoq son shaklida o'qiladi, ular orasiga پر [pər] old ko'makchisi qo'yiladi. Masalan, $\frac{2}{3}$ دوه پر دري [dwa pər dre]-ikki taqsim uch. Agar kasr sonlardan oldin butun son bo'lsa, unda butun son sanoq son shaklida o'qilib undan so'ng او [aw]-va bog'lovchisi qo'yiladi, keyin kasr son yuqoridagi qoidaga muvofiq o'qiladi. Masalan, $8\frac{3}{4}$ اته او دري خلورم [atə aw dre tsalorəm]- sakkiz butun uch taqsim to'rt.

O'nlik kasr sonlar arab tilida o'zlashtirilgan اعشاريه [a'shoriya] so'zi yordamida ifodalanadi. Bunda birinchi butun son aytiladi, undan so'ng اعشاريه so'zi va oxirida kasr son talaffuz qilinadi. Masalan, 2,8 دوه اعشاريه اته [dwa a'shoriya atə]- ikki butun o'ndan sakkiz.

Pashtu tilida 0,5 yoki $\frac{1}{2}$ ga teng kasr son o'rniga نيم [nim] - yarim, 0,25 yoki $\frac{1}{4}$ ga teng kasr son o'rniga پاو [pāw] - chorak so'zlari ishlatilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pashtu tilidan son so'z turkumini o'rganish hali nihoyasiga yetmagan. Olimlar ham ularning imlosi va talaffuzi borasida bir to'xtamga kelishmagan. Bungan Dalil qilib olimlarning sonlarning ma'no tuzilishiga ko'ra turlarining xilma-xiligani keltirib o'tamiz. Hattoki ularni nomlarida ham farqlar mavjud. Pashtu olimi Siddiqillo Rishtin mustaqil so'z turkumi sifatida ham keltirmay, uni sifat so'z turkumi ichiga qo'shib yuborgan. Murakkab sonlarni yasashda ko'plab imlo o'zgarishlari kuzatiladi va ularning muqobil variantlari ham yuzaga keladi. Murakkab sonlarni yasashning bir necha turdagi usullar yordamida hosil qilish mumkin. Sonlarning ma'no turlari sonlarning o'zidan suffiks qo'shish, takrorlash yo'llari orqali hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilidagi adabiyotlar:
2. Ўзбек тили грамматикаси(Морфология)-Тошкент.1975
3. Ўзбек тили грамматикаси(Синтаксис)-Тошкент.1976

¹² Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто). -Ленинград,1987.-С .109

4. Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2012.
5. Inomxojev Rahmonxoja.Pashto grammatikasi (fonetika va morfologiya).-Toshkent,2020

Rus tilidagi adabiyotlar

6. Калинина З.М. Очерки лексикологии современного пушту. - М., 1972.
7. Лебедев К.А. Грамматика языка пушту.- Москва., 1956.
8. Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто) . - Ленинград, 1987.
9. Лебедев К.А. Афганистан: язык, литература, этнография.-М., 2003.
10. Яцевич Л.С., Терепко О.С. Учебник языка пушту. Москва., 2001.
11. Асланов М.Г. Пушту-русский словарь.-Москва., 1985.
12. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. -М., 2001.

Ingliz tilidagi adabiyotlar

13. Anne Boyle Devid.Descriptive grammar of Pashto and its dialect. - Germany,2014
14. Habibullah Tegay, Barbara Robsin .A Reference Grammar of Pashto.- Washington,1996
15. Zeeya A. Pashtoon.Pashto-English dictionary.-Maryland,2009

Pashtu tilidagi asosiy manbalar

1. صديق الله رښتين. پښتو گرامر. پېښور. ۱۹۹۴م
2. صديق الله رښتين. پښتو گرامر(ژب ښودنه). پېښور. ۱۳۸۲ل
3. محقق سيد محى الدين هاشمي. د پښتو ژبې لنډ گرامر(صرف-نحوه). کابل. ۲۰۰۴
4. خيال بخارى. د پښتو صرف و نحو. پېښور ښار. يونيورستى بک الجسى